

“ARAB TILI GLOBALLASHUV DAVRIDA: INNOVATSION YONDASHUV VA O'QITISH METODIKASI”

Toshkent shahari
Fan va texnologiyalar universiteti
Xorijiy til va adabiyoti fakulteti
1-bosqich talabasi
Maxmudova Maxmuda Akmalovna
Supervisor:
Raxmatov Islombek Quldosh o'g'li
Fan va Texnologiyalar universiteti
“Tillar” kafedrasi, ingliz tili
“O'qish va yozish amaliyoti”
fani o'qituvchisi
islom_92forever@mail.ru

Anotatsiya: Arab tilining globallashuv jarayonida tutgan o'rni va ahamiyatini tahlil qiladi. Arab tili nafaqat islom dunyosining muhim muloqot vositasi balki, ilmiy madaniy va iqtisodiy sohalarda global ta'sir ko'rsatadigan til sifatida rivojlanmoqda. Maqolada zamonaviy texnologiyalar va raqamli platformalarning arab tilining keng ommalashuviga ta'siri haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: platformalar, ta'lim tizimi, dasturiy ta'minot, sun'iy intellekt, madaniy kontekst, tarjimashunoslik, innovatsion yondashuv.

Abstract: Analyzes the role and importance of the Arabic language in the process of globalization. The Arabic language is developing not only as an important means of communication in the Islamic world, but also as a language that has global influence in the scientific, cultural and economic fields. The article discusses the impact of modern technologies and digital platforms on the widespread popularity of the Arabic language.

Key words: platforms, educational system, software, artificial intelligence, cultural context, translation studies, innovative approach.

Аннотация: Анализируется роль и значение арабского языка в процессе глобализации. Арабский язык развивается не только как важное средство общения в исламском мире, но и как язык, имеющий глобальное влияние в научной, культурной и экономической сферах. В статье рассматривается влияние современных технологий и цифровых платформ на широкую популярность арабского языка.

Ключевые слова: платформы, образовательная система, программное обеспечение, искусственный интеллект, культурный контекст, переводоведение, инновационный подход.

Arab tili dunyodagi eng qadimiy til bo'lib islom dini, madaniy va ilm-fan rivojida katta ahamiyatga ega. Ammo globallashuv davrida bu til bir qator muamolarga duch kelmoqda. Eng avvalo, yosh avlod orasida qiziqishning kamayishi-zamonaviy yoshlar

ko'proq ingliz tili va boshqa global tillarni o'rganishga intilmoqda, bu esa arab tiliga bo'lgan e'tiborning pasayishiga olib kelmoqda. Shuningdek arab tilidagi kontent hajmi yetarli emas. Ta'lim tizimidagi kamchiliklar ba'zi mamlakatlarda arab tili o'qitishning zamonaviy va innovatsion usullari yetarlicha rivojlanmagan, bir global muamo madaniy asarlarning cheklangan tarjimasini: Ko'pgina arab tilidagi ilmiy va badiiy asarlar global miqyosda boshqa tillarga tarjima qilinmagan yoki yetarli darajada e'tibor qozonmagan shu kabi muamolarning albatta bir qator yechimlari bor arab tilini yoshlar orasida targ'ib qilish, arab tilining boy merosi va uni o'rganishning afzalliklari haqida targ'ibot ishlarini olib borish, ayniqsa, zamonaviy media platformalari orqali, shuningdek, raqamli texnologiyalarda arab tilini rivojlantirish, dasturiy taminot orqali ilovalar va raqamli platformalarni ko'paytirish, sun'iy intellekt va tarjima vositalarini rivojlantirish orqali arab tilida oson foydalaniladigan texnologiyalarni yaratish, zamonaviy ta'lim usullarini joriy etish, arab tili o'qitishda interaktiv va innovatsion usullarni joriy qilish, masalan: o'yinlar, video darslar va onlayn platformalardan foydalanish, ilmiy va badiiy asarlarni global miqyosda targ'ib qilish arab tilidagi nufuzli asarlarni boshqa tillarga tarjima qilishni qo'llab quvvatlash va ularni xalqaro miqyosda targ'ib qilish, bundan tashqari, arab tilini xalqaro tilda ishlatish imkoniyatlarini yaratish ya'ni YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda arab tilining ahamiyatini oshirish uni ilm-fan va madaniyatga faol ishlatiladigan tillar qatoriga kiritish. Globallashuv davrida arab tili turli qiyinchiliklarga duch kelayotgan bo'lsa-da, uning boy madaniy va ilmiy merosi, shuningdek, 300 milliondan ortiq so'zlashuvchilar borligi uni saqlab qolish va rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Yuqoridagi chora-tadbirlar arab tilini nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham yanada rivojlantirishga hizmat qiladi.

Chet tilini o'qitish jarayonida zamonaviy yondashuvlar va innovatsion uslublar global miqyosda til o'rganishni tezkor, qiziqarli va samarali qilishga yordam bermoqda. Bu uslublar nafaqat til o'rganuvchilarning ehtiyojiga moslashishni balki ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishni ham ta'minlaydi. Chet tilini o'qitishdagi innovatsion yondashuvlar va jahon tajribasi haqida batafsil ma'lumotlar: Innovatsin yondashuv ya'ni raqamli platformalar va texnologiyalar Duolingo, Babbel, Coursera kabi platformalar yordamida tilni mustaqil o'rganish imkoniyati kengaymoqda. Sun'iy intellekt chatbotlar va virtual yordamchilar(chatGPT) orqali intaeraktiv mashg'ulotlar. Individualizatsiya va moslashtirilgan yondashuvlar, o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlariga qarab maxsus reja asosida o'qitish.

Jahon tajribalari shuni ko'rsatadiki, Finlandiya ko'p tilde o'qitish tizimi. Maktablarda bir nechta chet tillarini bir vaqtda o'rganishga imkon beruvchi interaktiv va amaliy metodlar qo'llaniladi. SHuningdek Germaniya dual tizim nazariy bilim bilan birga amaliyotga asoslangan o'qitish. Tilni kundalik hayotda faol ishlatishga alohida e'tibor berish. Yaponiya eng rivojlangan mamlakat bo'lib unda texnologik yondashuvlar, robotlar yordamida chet tilini o'qitish .

Chet tilini o'qitishda muhim tamoyillari: interfaol yondashuv o'quvchilrni darsga faol jalb qilish orqali samaradorlikni oshirish. Madaniyatni o'rgatish tilni o'rganish

jarayonida ushbu tilga xos bolgan madaniyatni ham o'rgatish. Barqaror o'rganish muhitini yaratish, mustahkam bilimni rivojlantirish uchun doimiy amaliyot.

Innovatsion yondashuvlar va jahon tajribasi ko'rsatadiki, samarali chet tilini o'qitish texnologiyalarni joriy qilish, muloqotga asoslangan usullarni qo'llash va shaxsiy yondashuvlarni o'quv jarayoniga integratsiya qilishni talab qiladi. O'zbekistonda ham chet tilini o'qitishda ushbu tajribalardan foydalanish til o'rganish jarayonini sezilarli darajada samarador qilishi mumkin.

Tarjimashunoslik arab tilida ham nazariy, ham amaliy sohada muhim ahamiyatga ega. Arab tili dunyoning boy madaniyati, islomiy merosi va ilmiy asarlarini global miqyosda targ'ib qilishda asosiy o'rinda turadi. Biroq, tarjima jarayonida bir qator dolzarb muamolar mavjud bo'lib, ular: til strukturasi va semantik murakkablik-arab tilining boy va Grammatik tizimi va ko'p ma'noli so'zlar tarjimada murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Fasih (standart) arab tili va mintaqaviy dialektlar o'rtasidagi farqlar aniq va to'g'ri tarjima qilishda qiyinchilik tug'diradi. Arab tilidagi matnlarda madaniy, diniy va tarixiy kontekstlar ko'p uchraydi. Ularning bowqa tillarga tarjima qilishda mazmunni yo'qotish xavfi mavjud. Masalan: Qur'on oyatlari yoki hadislarini tarjima qilishda ularning mazmuniy chuqurligi va ma'naviy ahamiyatini to'liq aks ettirish qiyin. Texnik va ilmiy tarjima muamolari ya'niki, zamonaviy texnik va ilmiy atamalarni arab tiliga moslashtirishda terminologiya bo'yicha kelishmovchiliklar yuzaga keladi. Ko'pgina texnik sohalarda arab tilidagi atamalarning yagona standartlari mavjud. Dialektlararo tarjima muamosi-mintaqaviy dialektlarning ko'pligi sababli turli arab mamlakatlari o'rtasida matnlarning o'zaro tushunishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bir dialektda aytilgan so'z yoki ibora boshqa hududda boshqa ma'noga ega bo'lishi mumkin. SHu bilan birga tarjima sifatining pasayishi ko'pgina hollarda tarjimonlar asosan sun'iy intellekt vositalariga suyanib, qo'lda ishlangan yuqori sifatli tarjimalardan vos kechishadi, yetarlicha malakali va tajribali tarjimonlarning yetishmasligi sifatga ta'sir qiladi. Adabiy tarjima qiyinchiliklari arab adabiyotidagi obrazlilikka poetik jihatlarni boshqa tillarga tarjima qilishda ularning estetik ma'nosini saqlab qolish qiyin. Masalan, metafora va iboralarning tarjimasida ularning ma'no va ohanglari o'zgarishi mumkin. Tarjima nazariyasi va metodologiyasi: arab tilidagi tarjima bo'yicha nazariy tadqiqotlar hali global standartlar darajasida rivojlanmagan. Tarjimashunoslikda xalqaro uslub va yondashuvlar yetarlicha qo'llanilmaydi. Bu borada ko'pgina yechimlar va takliflar mavjud terminologik bazani standartlashtirish texnik va ilmiy sohalar bo'yicha yagona terminologiya yaratish va uni arab davlatlari o'rtasida bir xil qo'llashni ta'minlash. Lisoniy akademiyalar va ilmiy jamg'armalar bilan hamkorlikda terminologik lug'atlar tuzish. Tarjimonlar arab madaniyati va dinini chuqur bilishlari zarur. Madaniy kontekstni tushunishga yordam beradigan maxsus qo'llanmalardan foydalanish. Sun'iy intellektga asoslangan tarjima vositalarini takomillashtirish, ayniqsa arab tili uchun maxsus platformalar yaratish. Arab tilidagi avtomatlashtirilgan tarjima vositalarini yanada mukammal qilish. Tarjima sohasida maxsus o'quv dasturlarini joriy etish. Tarjimonlar uchun xalqaro seminarlarda ishtirok etish va malaka oshirish imkoniyatlarini kengaytirish. Adabiy asarlarni tarjima qilishda

mutaxassis tarjimonlarda foydalanish. Arab adabiyotini global miqyosda targ'ib qilish uchun xalqaro nashriyotlar bilan hamkorlik qilish. Tarjimashunoslik bo'yicha tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash va nazariy asarlarni yaratishga e'tibor qaratish. Jahon tarjimashunosligida ilg'or tajribalarni o'rganish va ulardan foydalanish. Arab tilida tarjimashunoslik bugungi globallashuv davrida katta ahamiyat kasb etadi. Tilning o'ziga xos xususiyatlari va madaniy boyliklarini to'liq aks ettiradigan sifatli tarjimalarni ta'minlash uchun nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni birlashtirish zarur. Zamonaviy texnologiyalar va xalqaro tajribadan foydalanish orqali ushbu muamolarni hal qilish va tarjimashunoslikni yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Hans Wehr Dictionary of Modern Written Arabic"
2. "Teaching Arabic as a Foreign Language: A Guide for Teachers" – Mahmoud Al – Batal
3. "Using Technology in Teaching Arabic"- Rasha El-Beltagy
4. "Innovation in Language Learning and Teaching" – Hayo Reinders